Arbolino, Lantz va Napolitano (2022, 2023) Yevropa Ittifoqi mamlakatlari misolida olib borgan tadqiqotlarida EIZlarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri mintaqaning iqtisodiy va institutsional xususiyatlariga bevosita bog'liq ekanligini asoslab bergan. Ularning fikricha, bir hududda yuqori samaradorlik ko'rsatgan EIZ modeli boshqa hududda ayni natijani bermasligi mumkin [7]. Shu sababli EIZlarni yagona model sifatida emas, balki turli iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchi institutsional mexanizm sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Koreya Respublikasining tajribasini o'rgangan Gu va Ahn (2025) EIZ maqomiga ega korxonalarning savdo hajmi, eksport faolligi va rentabellik ko'rsatkichlari oddiy hududlardagi korxonalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini aniqlagan [6]. Shu bilan birga, mualliflar EIZlarning ijobiy iqtisodiy samarasi qisqa muddatda emas, balki ma'lum vaqt o'tgach namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu esa EIZlarni rivojlantirishda uzoq muddatli strategik yondashuv va siyosiy barqarorlik muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalari yuzasidan ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Jurayev (2023) O'zbekiston EIZlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta'sir qiluvchi omillarni fazoviy-statistik metodlar asosida tahlil qilgan [17]. Nazarov (2024) esa "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi misolida mehnat unumdorligi va investitsiya hajmini EIZ samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida o'rgangan [22]. Abdullayev va Ismoilov (2020) O'zbekiston iqtisodiyotida EIZlarning rolini kompleks baholab, ularning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [22].

Xitoy tajribasi EIZlar evolyutsiyasini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Lin va hammualliflarning (2023) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Xitoy erkin savdo zonalari dastlab eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hududi sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik ular innovatsion rivojlanish va texnologik transformatsiyaning strategik markaziga aylangan [2]. Ushbu tajriba rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy mohiyati, tasniflash mezonlari va shakllarini chuqur o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuvlar majmuasiga asoslanadi.

Birinchidan, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarning shakllari, institutsional xususiyatlari va iqtisodiy funksiyalari o'zaro taqqoslandi. Natijada EIZlarning umumiy jihatlari hamda ularni bir-biridan farqlovchi xususiyatlari aniqlandi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar tushunchasini tizimlashtirish va ularning funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadida tarkibiy-funksional yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv asosida har bir EIZ turi uning maqsadi, iqtisodiy vazifalari, qo'llaniladigan imtiyozlar tizimi va investitsion yo'nalishlari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bu esa EIZlarning zamonaviy tasnifini ishlab chiqish imkonini berdi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligini baholash maqsadida statistik tahlil usuli qo'llanildi. Tahlil jarayonida investitsiyalar hajmi, eksport ko'rsatkichlari, sanoat ishlab chiqarishi, yangi ish o'rinlari yaratish hamda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD), World Bank hamda International Monetary Fund rasmiy hisobotlari, Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, shuningdek mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy sanoat rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida alohida huquqiy va iqtisodiy tartib asosida faoliyat yurituvchi maxsus hududlar hisoblanadi. Biroq ushbu tushunchaning amaliy jihatdan keng qo'llanilishiga qaramay, uning ilmiy talqini hali ham yagona yondashuvga ega emas. Turli xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchilar EIZlarga turlicha yondashgani sababli, mazkur tushunchaning nazariy mohiyatini aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ta'rifiga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalar "hukumatlar tomonidan fiskal va tartibga solish imtiyozlari hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash orqali sanoat faoliyatini rag'batlantiruvchi, geografik jihatdan chegaralangan hududlar" hisoblanadi [8]. Mazkur ta'rifning muhim jihati shundaki, unda EIZlarning uch asosiy komponenti — geografik chegaralanganlik, maxsus tartibga solish rejimi va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tizimi — aniq ifodalangan.

Alansary va Al-Ansari (2023) tomonidan amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar sharhi ham EIZ tushunchasining murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Mualliflar turli ilmiy manbalardagi ta'riflarni tahlil qilib, barcha yondashuvlar uchun xos bo'lgan quyidagi uchta umumiy elementni ajratib ko'rsatgan:

1. geografik jihatdan aniq chegaralangan hudud;
2. mamlakatning qolgan hududlaridan farq qiluvchi alohida tartibga solish rejimi;
3. sanoat va investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma tizimi [3].

Mazkur yondashuv EIZlarni oddiy sanoat hududlari yoki logistika markazlaridan farqlash imkonini beradi. Chunki EIZlar nafaqat hududiy birlik, balki maxsus iqtisodiy institut sifatida ham namoyon bo'ladi.

Douglas Zhihua Zeng esa erkin iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyati bir nechta strategik omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, EIZlarning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, to'g'ri geografik joy tanlash, qulay biznes muhiti yaratish hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq [22]. Ushbu omillarning uyg'unligi investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi va zonalarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi (1-jadval).

1-jadval. Erkin iqtisodiy zonalar ta'riflarining qiyosiy tahlili[1]

| Manba | Ta'rif / yondashuv | Asosiy mezon |
|---|---|---|
| UNCTAD (2019) | Fiskal va tartibga solish imtiyozlari hamda infratuzilma ko'magi orqali sanoat faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan geografik jihatdan chegaralangan hudud | Geografiya, rejim, infratuzilma |
| Alansary & Al-Ansari (2023) | Maxsus huquqiy rejim asosida faoliyat yurituvchi, chegaralangan iqtisodiy hudud | Ta'rif elementi uchtaligi |
| Jahon banki / Zeng (2016) | To'g'ri joylashuv, qulay muhit va samarali boshqaruvga asoslangan rivojlanish vositasi | Muvaffaqiyat omillari |
| Eksportamo (2022) | Erkin savdo, eksport qayta ishlash va maxsus iqtisodiy yo'nalishni o'z ichiga oluvchi keng tushuncha | Funktsional yo'nalish |
| O'zbekiston qonunchiligi | Maxsus soliq, bojxona va ma'muriy tartibga solish rejimi amaldagi alohida chegaralangan hudud | Huquqiy-ma'muriy mezon |

1 Muallif ishlanmasi

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, turli ilmiy manbalar va xalqaro tashkilotlar erkin iqtisodiy zonalar tushunchasiga turlicha yondashgan bo'lsa-da, ularning barchasida bir nechta umumiy belgilar — geografik jihatdan chegaralangan hudud, alohida huquqiy-iqtisodiy rejim hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga yo'naltirilganlik — asosiy element sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu umumiy xususiyatlar EIZlarning zamonaviy tasnifini shakllantirish va ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlash uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ilmiy adabiyotlarda erkin iqtisodiy zonalarni tasniflash uchun bir qator mezonlardan foydalaniladi. Ushbu mezonlarni tizimlashtirish EIZlarning funksional xususiyatlarini aniqroq tushunish, ular uchun mos iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish hamda samaradorligini baholash imkonini beradi.

Birinchi mezon — funksional yo'nalish hisoblanadi. Mazkur mezon EIZlarni eng ko'p qo'llaniladigan tasniflash usuli bo'lib, unga ko'ra zonalar savdo-logistika, sanoat-ishlab chiqarish, texnologik-innovatsion va xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga ajratiladi. Har bir tur o'zining maqsadlari, investitsion jozibadorligi va infratuzilmaviy talablariga ega bo'ladi. Masalan, eksport-ishlab chiqarish zonalari asosan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashsa, texnopark va innovatsion hududlar ilmiy tadqiqotlar hamda yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Ikkinchi mezon — mulk shaklidir. Ushbu mezonga ko'ra EIZlar davlat, xususiy yoki aralash (davlat-xususiy sheriklik) shaklida tashkil etilishi mumkin. Davlat zonalari odatda strategik iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilsa, xususiy zonalar investitsion samaradorlik va boshqaruv moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Aralash model esa davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi [20].

Uchinchi mezon — hududiy miqyosdir. Ayrim EIZlar alohida korxona yoki sanoat maydoni doirasida tashkil etilsa ("single factory zones"), boshqa zonalar yirik sanoat hududlari yoki butun mintaqalarni qamrab oluvchi ko'p tarmoqli iqtisodiy markazlar sifatida shakllantiriladi. Hududiy miqyos EIZlarning milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi va iqtisodiy ta'sir ko'lamini belgilaydi.

To'rtinchi mezon — bozor yo'nalishidir. Ushbu mezon asosida EIZlar eksportga yo'naltirilgan va ichki bozorni rivojlantirishga yo'naltirilgan turlarga bo'linadi. Eksportga yo'naltirilgan zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi tashqi bozorlarga chiqariladi. Ichki bozorga yo'naltirilgan zonalarda esa import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Zamonaviy EIZlarning ayrimlari esa ushbu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirgan holda faoliyat yuritmoqda.

Beshinchi mezon — rivojlanish avlodi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda EIZlar tarixiy rivojlanish bosqichlariga ko'ra uch avlodga ajratiladi [20]. Birinchi avlod zonalari asosan savdo va bojxona hududlari sifatida shakllangan bo'lsa, ikkinchi avlod eksport-ishlab chiqarish zonalari sanoatlashtirish va eksportni rag'batlantirishga xizmat qilgan. Uchinchi avlod zonalari esa innovatsion iqtisodiyot talablariga mos ravishda texnologik va ilmiy markazlar sifatida rivojlanmoqda. Mazkur evolyutsiya EIZlarning oddiy savdo hududidan innovatsion rivojlanish platformasiga aylanganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. EIZlarni tasniflash mezonlari tizimi[2]

| Mezon | Kichik turlar | Misol |
|---|---|---|
| Funktsional yo'nalish | Savdo, sanoat, texnologiya, moliyaviy, aralash | Erkin savdo zonasi, texnopark |
| Mulk shakli | Davlat, xususiy, davlat-xususiy sheriklik | Navoiy EIZ (davlat), Dubai FZ (aralash) |
| Hudud miqyosi | Mikrozona, kichik sanoat zonasi, katta mintaqaviy zona | "Single factory", Shenzhen SEZ |
| Bozor yo'nalishi | Eksport yo'naltirilgan, import o'rnini bosuvchi, ikki tomonlama | EPZ, import substitution zone |
| Rivojlanish avlodi | I avlod (savdo), II avlod (sanoat), III avlod (innovatsiya) | Kolumbo port → Qingdao → Silicon Valley parklar |

Yuqorida ko'rib chiqilgan tasnif mezonlari asosida zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarning to'rtta asosiy shakli ajratib ko'rsatiladi. Har bir shaklning iqtisodiy vazifalari, investitsion yo'nalishlari va rivojlanish mexanizmlari o'ziga xos bo'lib, ularni alohida tahlil qilish O'zbekiston iqtisodiy strategiyasi nuqtayi nazaridan ularning o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Erkin savdo zonalari EIZlarning tarixan eng qadimgi va bugungi kunda ham eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Geografik joylashuv nuqtayi nazaridan bunday hududlar odatda yirik dengiz portlari, xalqaro aeroportlar, transport-logistika tugunlari va davlat chegaralari yaqinida tashkil etiladi [27, 29].

2 Muallif ishlanmasi

ESZlarda tovarlarni import qilish, saqlash, qayta ishlash va re-eksport qilish uchun qulay bojxona va savdo tartiblari yaratiladi. Mazkur zonalarda faoliyat yurituvchi subyektlarga bojxona to‘lovlari va ayrim soliqlar bo‘yicha imtiyozlar taqdim etiladi. Shu sababli ushbu hududlarning asosiy vazifasi xalqaro yuk oqimlariga xizmat ko‘rsatish va tranzit-logistika faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir [20, 27].

Jahon amaliyotida Dubai Jebel Ali erkin zonasi (BAA), Gonkong va Singapur portlari erkin savdo zonalarining eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hududlar nafaqat savdo hajmini oshirish, balki o‘z mamlakatlarini global logistika markazlariga aylantirishda ham muhim rol o‘ynagan.

Eksport-ishlab chiqarish zonalari erkin savdo zonalarining evolyutsion davomi sifatida shakllangan bo‘lib, ayniqsa XX asrning 60–70-yillarida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng rivojlandi [25].

Jahon banki ta’rifiga ko‘ra, bunday zonalar eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, odatda maxsus ajratilgan va muhofaza qilinadigan sanoat hududlari hisoblanadi. Ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalarga qulay bojxona rejimi, soddalashtirilgan ma’muriy tartiblar va investitsion imtiyozlar taqdim etiladi. Asosiy maqsad xorijiy investorlarni jalb qilish, sanoat mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda valyuta tushumlarini ko‘paytirishdan iborat [25].

Eksport-ishlab chiqarish zonalarining eng mashhur namunalaridan biri — Shenzhen maxsus iqtisodiy zonasi hisoblanadi. 1980-yilda tashkil etilgan ushbu hudud qisqa muddat ichida Xitoyning sanoat va texnologik rivojlanish markaziga aylangan hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali iqtisodiy model sifatida xizmat qilgan [32].

Maxsus iqtisodiy zonalar eksport-ishlab chiqarish zonalariga nisbatan yanada kengroq iqtisodiy funksiyalarni qamrab oladi. Ular nafaqat eksport faoliyatini, balki ichki bozorni rivojlantirish, logistika xizmatlari, sanoat kooperatsiyasi va investitsion muhitni yaxshilashni ham maqsad qiladi.

MEZlarda soliq va bojxona imtiyozlari, soddalashtirilgan ma’muriy tartiblar, zamonaviy infratuzilma hamda investitsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari birgalikda qo‘llaniladi [27]. Bunday hududlar ko‘pincha sanoat, savdo, logistika, xizmat ko‘rsatish va ayrim hollarda moliyaviy faoliyatni birlashtiruvchi kompleks iqtisodiy markaz sifatida shakllanadi.

Koreya Respublikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar eksport hajmi, foyda va savdo faolligi bo‘yicha boshqa hududlardagi korxonalarga nisbatan yuqori natijalarga erishadi [6]. Shu bilan birga, mazkur samaradorlik uzoq muddatli va izchil davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Texnologiya va innovatsion hududlar EIZlarning eng zamonaviy, uchinchi avlod shakli sifatida qaraladi. Texnoparklar, texnopolislar va innovatsion klasterlar shaklida rivojlangan ushbu hududlar asosan ilmiy markazlar, universitetlar va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hududlari yaqinida tashkil etiladi [20].

Mazkur hududlarda asosiy e’tibor ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologiyalarni joriy etish hamda ilm-fan va sanoat integratsiyasini kuchaytirishga qaratiladi. Shu sababli TIHlar zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotning muhim institutsional elementiga aylangan.

So‘nggi yillarda Xitoy erkin savdo va innovatsion zonalari faqat xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi sanoat hududlari sifatida emas, balki shaharlarning innovatsion salohiyatini oshiruvchi strategik iqtisodiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘lmoqda [2]. Ushbu tendensiya zamonaviy EIZlar falsafasida muhim o‘zgarish yuz berayotganini ko‘rsatadi: iqtisodiy raqobat ustunligi endilikda arzon ishchi kuchi emas, balki innovatsiya, texnologiya va bilim salohiyati asosida shakllanmoqda (3-jadval).

3-jadval. EIZ asosiy shakllarining qiyosiy tavsifi[3]

| EIZ shakli | Asosiy maqsad | Imtiyozlar | Jahon misollari |
|---|---|---|---|
| Erkin savdo zonasi (ESZ) | Tranzit savdo va re-eksport | Bojxona to‘lovlaridan ozodlik, saqlash | Dubai Jebel Ali, Gonkong, Singapur |
| Eksport-ishlab chiqarish zonasi (EPZ) | Eksport uchun sanoat mahsuloti ishlab chiqarish | Soliq imtiyozlari, erkin import, liberal mehnat qoidalari | Shenzhen (Xitoy), Masan (Koreya) |
| Maxsus iqtisodiy zona (MEZ) | Ko‘p tarmoqli iqtisodiy rivojlanish | Keng qamrovli fiskal va tartibga solish imtiyozlari | Incheon (Koreya), Pudong (Xitoy) |
| Texnologiya/innovatsion hududlar | R&D, yuqori texnologiya, innovatsiya | Intellektual mulk himoyasi, grant va subsidiyalar | Silikon vodiysi (AQSh), Zhongguancun (Xitoy) |

3 Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan buyon erkin iqtisodiy zonalar tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda huquqiy va institutsional baza muntazam takomillashtirilib, investitsion muhitni yaxshilash hamda hududiy sanoat rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi 2008-yilda tashkil etilgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab “Urganch”, “Nukus-pharm”, “Sirdaryo” va boshqa bir qator yangi zonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi [19].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 20 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda. Mazkur hududlarning asosiy qismi eksport-ishlab chiqarish zonalari hamda maxsus iqtisodiy zonalar modeliga yaqin bo‘lib, ular sanoat, logistika, farmatsevtika va agroindustriya yo‘nalishlarida ixtisoslashgan [17, 19]. Ayniqsa, “farm” tipidagi zonalar farmatsevtika sanoatini rivojlantirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nazarov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, “Navoiy” EIZida 2018–2023-yillar davomida investitsiyalar hajmi va mehnat unumdorligi bo‘yicha ijobiy dinamika kuzatilgan [22]. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining markazlashganligi, KPI asosidagi monitoring mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanish bosqichida ekanligi ayrim samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ahn, Juraev va Gu (2024) tadqiqotlarida O‘zbekiston EIZlari barqaror iqtisodiy o‘sish nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, transport-logistika, energetika va telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan [17, 21]. Shuningdek, ayrim ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish va investorlar uchun qulay xizmatlar tizimini kengaytirish istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston EIZlarining istiqboli yuqori baholanmoqda. Mamlakatning Markaziy Osiyoning markazida joylashgani, Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi muhim tranzit yo‘laklarida joylashuvi erkin savdo va logistika zonalarini rivojlantirish uchun tabiiy strategik ustunlik yaratadi. Bundan tashqari, “Innovatsion O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida texnologik parklar, innovatsion klasterlar va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi sanoat hududlarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar EIZlarning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Birinchidan, erkin iqtisodiy zona tushunchasi o‘zining iqtisodiy va institutsional tabiati jihatidan ko‘p qirrali hisoblanadi. Shu sababli uni yagona universal ta’rif bilan to‘liq ifodalash murakkabdir. Hozirgi bosqichda UNCTAD tomonidan taklif etilgan uch komponentli yondashuv — geografik chegaralanganlik, alohida tartibga solish rejimi hamda infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash — EIZlarni ilmiy va amaliy jihatdan tavsiflash uchun eng maqbul metodologik asos sifatida qaralmoqda.

Ikkinchidan, EIZlarni funksional yo‘nalish, mulk shakli, bozor orientatsiyasi va rivojlanish avlodi mezonlari asosida tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Mazkur tizimli yondashuv davlat siyosatini shakllantirish, hududiy ixtisoslashuvni belgilash va investitsion ustuvorliklarni aniqlashda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, EIZlarning muvaffaqiyati faqat soliq yoki bojxona imtiyozlari bilan belgilanmaydi. Ularning samaradorligi, avvalo, qulay geografik joylashuv, rivojlangan infratuzilma, investorlarga mos biznes muhiti hamda zamonaviy boshqaruv tizimining mavjudligiga bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, EIZlarning rivojlanish evolyutsiyasi savdo zonalaridan sanoat hududlariga, undan esa innovatsion va texnologik markazlarga o‘tish tendensiyasini namoyon etadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalari tizimi sezilarli rivojlanish salohiyatiga ega. So‘nggi yillarda yangi zonalarning tashkil etilishi va investitsion muhitning takomillashuvi ijobiy natijalarni yuzaga chiqarmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilmaviy imkoniyatlarning rivojlanish bosqichida ekanligi, boshqaruv tizimining markazlashganligi hamda institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjudligi kuzatilmoqda.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. EIZlarni funksional ixtisoslashtirish strategiyasini ishlab chiqish. O‘zbekistonning geografik joylashuvi, resurs salohiyati va hududiy ustunliklarini hisobga olgan holda har bir hudud uchun mos EIZ turini (ESZ, EPZ, MEZ yoki TIH) ilmiy asosda belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu investitsiyalarni yanada samarali taqsimlash va hududiy iqtisodiy muvozanatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Boshqaruv tizimida moslashuvchanlik va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Xalqaro tajriba, xususan Koreyaning Incheon va Xitoyning Pudong zonalari amaliyoti, davlat-xususiy sheriklik asosidagi boshqaruv modellari yuqori samaradorlikni ta’minlashini ko‘rsatmoqda. Shu bois EIZlarni boshqarishda xususiy sektorning institutsional rolini bosqichma-bosqich kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Raqamli infratuzilma va "aqlli zona" texnologiyalarini joriy etish. Zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari, elektron xizmatlar, logistika monitoringi va "smart zone" texnologiyalarini joriy etish EIZlar faoliyati samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin. Bu borada Singapur va BAA tajribasi amaliy jihatdan muhim namuna bo'la oladi.

4. Faoliyat monitoringi va baholash tizimini takomillashtirish. EIZlar faoliyatini muntazam, shaffof va natijadorlikka yo'naltirilgan monitoring tizimi asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Xususan, UNCTAD tomonidan tavsiya etilgan barqaror rivojlanish foyda-zarar tahlili metodologiyasidan foydalanish zonalarning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi [12].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2017-yildagi "Zomin-Farm", "Kosonsoy-Farm", "Sirdaryo-Farm", "Bo'stonliq-Farm" Va "Parkent-Farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risidagi PF-5032-sonli Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/-3191758
2. Abdullayev, K., & Ismoilov, A. (2020). The role of free economic zones in the economic development of Uzbekistan. Journal of Economic Studies, 12(3), 45–60.
3. Cen, W., & Wang, L. (2024). Unraveling the impacts of free trade zones on urban innovation intensity: Evidence from China. Land Use Policy, 149, 1–12. https://doi.org/10.1016/j.landusepol.2025.107435
4. Alansary, O. S., & Al-Ansari, T. (2023). Defining "free zones": A systematic review of literature. Heliyon, 9(4), e15344. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e15344
5. Arbolino, R., Lantz, T. L., & Napolitano, O. (2022). Assessing the impact of special economic zones on regional growth through a comparison among EU countries. Regional Studies, 57(6), 1069–1083. https://doi.org/10.1080/00343404.2022.2069745
6. Böhmer, M., et al. (2020). Tax incentives and investment in free economic zones. International Journal of Economics, 8(4), 201–217.
7. Gu, J. Y., & Ahn, Y. J. (2025). Free economic zones and firm performance: Evidence from Korea. KDI Journal of Economic Policy, 47(2), 81–105. https://doi.org/10.23895/kdijep.2025.47.2.81
8. Jurayev, Z. (2023). Spatial study of factors affecting FDI into FEZs in Uzbekistan. SSRN Working Paper No. 4322377.
9. Nazarov, N. K. (2024). O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi statistik ko'rsatkichlari tahlili. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 12(6), 57–63. https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/612
10. UNCTAD. (2019). World Investment Report 2019: Special Economic Zones. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2019_en.pdf
11. Yuldashev, R. (2021). Free economic zones in Uzbekistan: Current trends and prospects. Economic Review, 15(2), 78–91.
12. Zeng, D. Z. (2016). Special Economic Zones: Lessons from the Global Experience. World Bank Publications. https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/24324
13. Ahn, Y. J., Juraev, Z., & Gu, J. Y. (2024). Barqaror o'sish uchun O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarni tahlil qilish. Indonesian Journal of Geography, 56(1), 44–51.
14. Tokhtamurodov, D. (2025). Ways to assess the effectiveness of free economic zone management activities. American Journal of Economics and Business Management, 8(4). https://doi.org/10.55549/ajebm.v8i4.3480

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2026. № 5 (3)**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz